

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA TIL UNSURLARINI TADQIQ QILISHNING NAZARIY MASALALARI

Rasulova Gulmira

Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti magistranti:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8361973>

Qayd etish lozimki, muqobilsiz leksika atamasi tilshunoslik adabiyotida tez-tez uchraydi. Buning uchun muqobilsiz leksika masalalarini o'rganish bilan shug'ullangan bir necha tadqiqotchilar nomlarini sanab o'tish kifoya: G. P. Shatkov (1952), G. V. Chernov (1958), L. N. Sobolev (1952), A. V. Fedorov (1983), A. D. Shveyser (1973), YE. M. Vereshagin i V. X. Kostomarov (1973, 1990), Y. I. Retsker (1974), L. S. Barxudarov (1975), S. Vlxov, S. Florin (1980, 1986), R. K. Minyar-Beloruhev (1986), A. O. Ivanov (1984), A. X. Gatilova (1996), A. S. Mamontov (2000) va boshqalar.

O'zbek tilini qaysidir xorijiy leksik tushuncha bilan qiyoslash imkonsiz bo'lgan va faqat bir tilning leksik tarkibi bilan boshqa tilning leksik birliklarini solishtirgandagina ajratib olinadigan so'zlarning muqobilsiz leksika masalasi tilshunoslik, tarjima nazariyasi va amaliyoti, lingvoo'lkashunoslik bo'yicha ilmiy ishlarda bir necha marta o'rganilgan, biroq muqobilsiz leksika tushunchasining mazmuni turli tadqiqotchilarda har xil talqin etiladi. Quyida muqobilsiz leksika hodisasiga doir turli qarashlarni batafsil ko'rib chiqamiz.

Muqobilsiz leksika bilan bog'liq masalalarni tadqiq etishga bo'lgan ilk urinish G. V. Shatkov va G. V. Chernov¹ning ilmiy ishlari hisoblanadi. Muqobilsiz leksika muammosini yuqoridagi olimlar aniq til juftliklari – ruscha-norvegcha va ruscha-inglizcha – vositasida o'rganishgan. Ular muqobilsiz leksika tarkibiga turli leksik birliklar guruhlarini kiritishgan, lekin tadqiqot uchun asosiy material sifatida leksikaning eng oshkora qatlami – voqeliq (realiya)xizmat qiladi.

G. V. Shatkov o'zining dissertatsiya ishini rus muqobilsiz leksikasining norveg tiliga o'girilishi masalalariga bag'ishlar ekan, tilshunoslik va tarjimashunoslikda birinchilardan bo'lib «muqobilsiz leksika» atamasini qo'lladi va muqobilsizlikni «bir tildagi muqobil so'zlarning boshqa tilda mutlaq yoki qisman mavjud emasligi» deya ta'rifladi. Muqobilsiz leksika – bu «ayni tarixiy davrda boshqa tilning leksikasida «tayyor» aniq moslikka ega bo'lmagan, so'z yoki uning ma'nolaridan (o'z yoki ko'chma) biri»². Muqobilsiz leksika tarkibiga muallif quyidagilarni kiritadi: atoqli otlar; milliy voqelik(realiya)lar; milliy o'ziga xos ekspressiv bo'yoqdorlikka ega so'zlar; subektiv baho beruvchi suffikslar qatnashgan so'zlar; ko'chma ma'noli so'zlar. Muqobilsiz so'zlarning o'ziga xos turi sifatida, G. V. Shatkov u yerga shevalar, arxaizmlar, taqlid so'zlar, tajnis (so'z o'yinlari)ni kiritadi. G. V. Chernov XX asrning 50 yillari sovet publitsistikasi materiallari asosida rus muqobilsiz leksikasining ingliz tiliga tarjima qilinishi masalalari bilan shug'ullangan. Muqobilsizlik deganda muallif «tarjima etiladigan tilning lug'aviy tarkibida leksik birlik ma'nolarining hech biri yoki qaysidir birining muqobili mavjud emasligi»ni tushunadi. Muqobilsiz leksik birliklar sovet davriga xos bo'lgan tushunchalarni (masalan, kolxoz) va milliy o'ziga xos voqeliklarni anglatuvchi so'zlar hisoblanadi. G. V. Chernov muqobilsizlikning uch turini belgilaydi:

- 1) moddiy – tarjima etiladigan til egalari (xalq)ning hayotida berilgan predmet yoki hodisa mavjud bo‘lmaganida yuzaga keladi;
- 2) leksik-semantik – berilgan predmet yoki obektiv voqelik hodisasi haqida aynan o‘xshash tushunchaning mavjud bo‘lmaganida;
- 3) stilistik (uslubiy) – original tildagi va uning tarjima etiladigan tildagi muvofiq leksik birlikning leksik - stilistik xususiyatlaridagi tafovut bo‘lganida.

Nima sababdan tarjima qilinadigan tilda tushunchaning mavjud emasligi, buning sababi o‘sha predmetning o‘zi yo‘qligi yoki tarjima etilayotgan tildagi so‘zning ma‘nosi asl (original) tildagi so‘z ma‘nosi bilan mos kelmasligi – bularning bari, tarjima nuqtai nazaridan, unchalik muhim ahamiyatga ega emas. Ehtimol, muqobilsiz tushunchalarni emas, balki leksik birliklar mazmunining tafovuti sifatida o‘rganish to‘g‘ri bo‘ladi.

A. D. Shveyser «Tarjima va tilshunoslik» kitobida shunday yozadi: «tarjima nazariyasida, u yoki bu mamlakatning boshqa tilda muqobili mavjud bo‘lmagan, o‘ziga xos voqeliklarini (ya‘ni tarix, madaniyat, iqtisod va maishiy hayot bilan bog‘liq predmetlar yoki hodisalarni) ifodalagan, leksik birliklarni anglatuvchi «muqobilsiz leksika» atamasi paydo bo‘ldi»

Shuningdek, Y. I. Retsker muqobilsizlikni «avvalo, asl (original) til egalari uchungina xos bo‘lgan, lekin, shu bilan birga, boshqa til va o‘zga vaziyatlar uchun begona voqelikni anglatuvchi» deya ta‘riflaydi.

Muqobilsiz leksika masalasi borasidagi batafsil mulohazalarni L. S. Barxudarovning «Til va tarjima» monografiyasidan topamiz. Muqobilsiz leksika deganda, muallif, boshqa tildagi leksik birliklar orasida hech qanday mutlaq va qisman muqobilsizlikka ega bo‘lmagan, ma‘lum bir tilning leksik birliklarini nazarda tutadi. L.S.Barxudarov o‘z monografiyasida shuningdek muqobilsiz leksikaga uchta katta til birliklari turkumini kiritadi. Birinchi turkumga u atoqli otlar, korxonalar, tashkilot, OAV nomlari, geografik nomlarni kiritadi. Ikkinchi turkumga u voqelik(realiya)lar – boshqa tilda so‘zlovchi odamlarning amaliy tajribasida va real hayotida mavjud bo‘lmagan tushunchalar va vaziyatlar, hodisalar va predmetlarni bildiruvchi so‘zlarni kiritadi. Uchinchi turkumga L. S. Barxudarov «tasodifiy lakunalar»ni kiritadi. Muqobilsiz leksikaning ushbu turkumiga, ma‘lum sabablarga ko‘ra, bir tilning boshqa til lug‘at boyligida uchramaydigan leksik birliklarini kiritish mumkin. Haqiqatdan ham, nemis va fransuz tili lug‘atlarida rus tilidagi «sutka» so‘zining ma‘nosiga mos keladigan leksik birlik yo‘q va bu tushunchani nemis va fransuz tillariga izohlab o‘girishga to‘g‘ri keladi: yoki soatlar miqdoriga ishora qilish yo‘li bilan, masalan, «24 Stunden», «les 24 heuers», yoki, agar harakatning uzluksizligi, kechayu-kunduz davom etishi ta‘kidlansa, «Tag und Nacht», «jour et nuit» so‘z birikmalari bilan.

Muallifning qayd etishicha, voqelikni anglatuvchi so‘zlarni muqobilsiz leksika qatoriga qo‘shish mumkinligini hal qilish har doim ham oson ish emas, chunki «okkazional tarjima muqobili (tarjima qilinishi kerak tilning lug‘aviy tarkibiga (hali) kirib ulgurmagan va nutqda «potensial» leksik birlik sifatida qo‘llanilayotgan) ko‘pincha yaxlit lug‘aviy muvofiqlikka ko‘chishi mumkin». Okkazional moslikning odatiylikka ko‘chish vaqti har doim ham aniq belgilanmasligi mumkin. Qachonki so‘z tarjima etiladigan tilning izohli lug‘atida qayd etilsa, asliy (original) tildagi leksik birliklar muqobilsiz bo‘lishni to‘xtatadi. L. S. Barxudarov yana shuni ham qayd etadiki, tilshunoslik uchun asosiy masala – bu so‘z tilning (lug‘aviy tarkibning) birligiga aylanishi yoki, ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan holda, og‘zaki nutq birligiga aylanishidir. Muallif shuni alohida ta‘kidlaydiki, u «muqobilsiz leksika»

atamasini faqatgina u yoki bu leksik birlikning boshqa til lug'aviy tarkibida mosligi mavjud emasligi ma'nosida qo'llaydi.

Rus olimlaridan biri V. N. Krupnov muqobilsiz leksika tarkibini ochib bermaydi. U mazkur turkumni «ayni tarjimaning rivojlanish bosqichida muqobilga ega bo'lmagan, predmetlarni, jarayon va hodisalarni anglatuvchi so'zlar va so'z birikmalari» deya ta'riflaydi ³ V. N. Krupnov muqobilsiz leksikani ikki guruhga bo'ladi:

- 1) Muqobilsizlik turkumiga kiradigan leksika, chunki ayni tarjima etiladigan tilga o'girish bosqichida hali muvaffaqiyatli moslik topilmagan (ya'ni muvaqqat muqobilsizlik);
- 2) Muqobilsizlik turkumiga kiradigan leksika, chunki tarjima qilinadigan tilda ayrim muqobillar umuman yo'q bo'lishi mumkin

Muqobilsiz leksikani o'rgangan olimlardan A. V. Fyodorovning ta'kidlashicha, tarjimada qaysidir asl (original) so'zga muvofiqlik topishning mutlaqo imkonsizligi – bu nisbatan kam uchraydigan hodisa. Uning aytishicha, bu hodisa, qachonki asliyatdagi so'z boshqa xalqning turmushida va tushunchalarida muvofiqlikka ega bo'lmagan, sof mahalliy hodisani anglatganda, sodir bo'ladi»,⁴ ya'ni milliy o'ziga xos voqelikni anglatuvchi so'zni o'girishga to'g'ri kelganda. Muallifning fikricha, asl matnda nazarda tutilgan narsalar va ular bilan bog'liq obrazlarni to'g'ri tarjima qilish imkoni asarda (original matnda) tasvirlangan voqelik haqidagi ma'lum bilimni ko'zlaydi. Mamlakatshunoslikda, qiyosiy tilshunoslikda va tarjima nazariyasida bu bilimlar «fondagi bilimlar» deb ta'riflanadi, ya'ni boshqa mamlakat, boshqa xalqning voqeliklari haqidagi aniq ma'lumotlar, tarjimon uchun zarur bo'lgani singari, matn bilan tanishayotgan o'quvchi uchun ham, matnni to'liq va aniq anglash uchun, zarur. YE. M. Vereshagin va V. G. Kostomarov bu bilimlarni «kommunikativ jarayonning ishtirokchilari uchun umumiy» deb sharhlaydilar.⁵ Tarjima nazariyasi va amaliyotida «fondagi bilimlar»ning boshqa madaniyat, mamlakat uchun xos bo'lgan hodisalarga taalluqli qismigina ahamiyatga ega va u o'quvchi uchun tarjima matnini benuqson tushunishga xizmat qiladi. Haqiqatdan ham, o'zbek tilining tilining leksik materialida shunday so'zlar guruhini ajratish mumkinki, ular shu tilda so'zlovchilarda, boshqa madaniyat va tamaddunlarda mavjud bo'lmagan, ma'lum tasavvurlarni uyg'otishi mumkin. Masalan, «osh» so'zi o'zbek tili egasida ayrim xududlarda palov haqida fikr paydo qilsa, o'zga madaniyat vakillari bu so'zni balandlikdan sakrab o'tish ma'nosida tushunishlari xam mumkin, bu kabi so'zlarga olma, ot, suz, un kabi so'zlarni keltirish mumkin.